



**XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA BUXORO VILOYATI SUV XO'JALIGI
TIZIMINING TARIXIY TARAQQIYOTI**

Baxronov Nodir Bobirovich

*Buxoro suv ta'minoti tarixi muzey
filiali kata ilmiy xodimi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asrning ikkinchi yarmida Buxoro viloyatida irrigatsiya va melioratsiya tizimining rivojlanish bosqichlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda viloyatda yuzaga kelgan suv taqchilligi, Zarafshon daryosi suv resurslarining kamayishi, Amudaryo suvlari asosida yangi sug'orish tizimining shakllanishi, suv xo'jaligi inshootlarining qurilishi, loyiha tashkilotlari va malakali kadrlar tayyorlash jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, yangi irrigatsiya tizimining qishloq xo'jaligi hamda viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri ilmiy jihatdan baholangan.

Kalit so'zlar: Buxoro viloyati, irrigatsiya, melioratsiya, Amudaryo, Zarafshon daryosi, suv xo'jaligi, sug'orish tizimi, gidrotexnik inshootlar, loyiha tashkilotlari, suv resurslari, melioratorlar, XX asr.

Jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida sug'orish tizimlari, gidrotexnik inshootlar va irrigatsiya tarixini o'rganish, suv xo'jaligi obyektlarining bunyod etilishi hamda ularni boshqarish va tartibga solishning tarixiy tajribalarini tahlil qilish, shuningdek, muayyan hududlarning o'zlashtirilishi, obodonlashuvi va iqtisodiy rivojlanishida sug'orish tarmoqlarining tutgan o'rni hamda tarixiy asoslarini yoritishga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida irrigatsiya tizimi O'rta Osiyo xalqlari xo'jalik hayotining asosiy negizlaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Suv resurslaridan oqilona foydalanish mintaqa aholisi uchun nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili, balki siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy vositalardan biri sifatida ham alohida ahamiyat kasb etgan. Xususan, ilk o'rta asrlarda shakllangan feodal munosabatlar sharoitida O'rta Osiyoda mulkdorning mavqei yer maydoniga egaligi bilan emas, balki sug'orish manbalari va suv taqsimotini nazorat qilish imkoniyati bilan belgilangani kuzatiladi.

Buxoro vohasi uzoq vaqt davomida yagona irrigatsiya tizimi asosida sug'orilgan bo'lib, XX asrning 60-yillarigacha vohaning dehqonchilik hududlari asosan Zarafshon daryosi suvlari hisobiga suv bilan ta'minlangan. Tarixiy manbalarga ko'ra, qadimda Zarafshon daryosi sersuv bo'lib, Buxoro vohasiga konussimon shaklda kirib kelgan va Vobkentdaryo, Shoxrud, Qorako'ldaryo, Mohandaryo hamda Tayqir kabi ko'plab tarmoqlarga ajralgan holda voha hududi bo'ylab keng yoyilib oqgan. Mazkur irrigatsiya tarmog'i vohaning dehqonchilik yerlari o'zlashtirilishi, aholi manzilgohlari shakllanishi va mintaqaning iqtisodiy



taraqqiyotida hal qiluvchi o‘rin tutgan¹. Zarafshon daryosining O‘zbekiston SSR hududidan oqib o‘tuvchi qariyb 370 km uzunlikdagi quyi qismi tekis Qizilqum cho‘llari tomon yo‘nalganligi sababli suvning salmoqli qismi xo‘jalik ehtiyojlari uchun foydalanilmasdan, bug‘lanish hamda yer osti qatlamlariga singib ketgan.

XX asrning 50-yillariga kelib Buxoro viloyatida suv taqchilligi tobora keskin tus oldi. Bu holat, avvalo, sovet hokimiyatining O‘zbekiston SSRda amalga oshirgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati hamda suv resurslarini boshqarishdagi nomutanosib yondashuvlar natijasida yanada murakkablashdi. Natijada Zarafshon daryosidan Buxoro vohasiga yetib keladigan suv hajmi yildan yilga qisqarib bordi. Tarixan Amudaryogacha yetib borgan Zarafshon daryosi 1950-yillarga kelib eski o‘zani — Tayqir daryosi orqali faqat ingichka irmoq holida oqib, Olot tumani hududidagi Kichik Dengizko‘lgacha zo‘rg‘a yetib boradigan darajaga tushib qoldi².

Urush yakunlanishi bilan sovet ittifoqi boshqaruv apparatida o‘ziga xos o‘zgarishlar amalga oshirildi. 1951-yil 31-yanvarda Buxoro viloyat Ijroiya qo‘mitasi Mehnatkashlar Xalq Deputatlar Kengashining navbatdagi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi va yangi sug‘orish tizmiga o‘tildi³.

Suv xo‘jaligi obyektlarini barpo etishga yo‘naltirilgan mablag‘lardan samarali foydalanish, qurilish xarajatlarini optimallashtirish, gidrotexnik inshootlarning foydalanish samaradorligini oshirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda yerlarning meliorativ holati va unumdorligini saqlab qolish puxta ilmiy asoslangan loyiha va texnik yechimlarni ishlab chiqishni taqozo etardi. Shu maqsadda O‘zbekiston SSR Melioratsiya va suv xo‘jaligi vazirligi tizimida irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini loyihalash, yangi yerlarni kompleks o‘zlashtirish, kollektor-drenaj tarmoqlarini barpo etish hamda loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi ixtisoslashgan loyiha tashkilotlari faoliyat yurita boshladi. Jumladan, **“Uzgidrovodxoz”, “Ferganagiprovodxoz”, “Samarqandgiprovodxoz”, “Uzvodpromproekt”, “Uzgiprovodxoz”, “Sredazgiprovodxlopok”,** shuningdek, viloyat xo‘jalik-ishlab chiqarish boshqarmalari hamda Qoraqalpog‘iston ASSR Amudaryo deltasi boshqarmasi huzuridagi 12 ta loyihalash guruhi ana shunday muassasalar sirasiga kirgan⁴. XX asr 50-yillarida O‘zbekiston suv xo‘jaligi qurilishida yangi davr boshlandi.

Suv xo‘jaligi sohasida 1950-yillarda dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan malakali mutaxassislar taqchilligi 1970-yillarga kelib sezilarli darajada bartaraf etildi. Natijada respublika irrigator va melioratorlari nafaqat viloyat miqyosidagi loyihalarda, balki O‘zbekiston SSRning boshqa hududlari hamda RSFSR, Afg‘oniston va Turkmaniston SSR kabi mamlakat va respublikalarda amalga oshirilgan yirik irrigatsiya va gidrotexnik inshootlar qurilishida ham faol ishtirok etdilar.

Viloyat hududida muntazam ravishda olib borilgan qurilish-montaj ishlari mutaxassislarning faqat nazariy bilimlari bilan cheklanib qolmasdan, boy amaliy tajriba to‘plashiga ham keng imkoniyat yaratdi. Mazkur jarayon natijasida irrigatsiya va melioratsiya

¹ Мухаммаджонов А.Р. Бухоро шаҳри – 2500 ёшда. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 14.

² Мухаммаджонов А.Р. Бухоро шаҳри – 2500 ёшда. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 15.

³ Бухоро viloyat davlat arxivi 1023-fond, 1-ro‘yxat, 149-yig‘majild, 369-varaq.

⁴ Жўрабеков И. Ўзбекистонда сув хўжалиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 1982. – Б. 20.



tizimida faoliyat yuritayotgan muhandis-texnik xodimlarning kasbiy mahorati, malakasi hamda boshqaruv tajribasi izchil takomillashib bordi. Bu esa viloyat suv xo'jaligi tizimining ilmiy-texnik salohiyatini mustahkamlash va sohaning yanada samarali rivojlanishiga xizmat qildi.

Yangi sug'orish tizimining joriy etilishi natijasida Buxoro vohasining suv ta'minoti Amudaryo suvlari hisobiga yo'lga qo'yildi. Mazkur tizim nafaqat viloyatning tobora ortib borayotgan suvga bo'lgan ehtiyojini to'liqroq qondirish imkonini berdi, balki qishloq xo'jaligi, sanoat, kommunal xo'jalik va boshqa tarmoqlarning barqaror rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi. Natijada yangi irrigatsiya tizimi viloyatning iqtisodiy salohiyatini oshirish, yangi yerlarni o'zlashtirish hamda aholi turmush darajasini yuksaltirishda muhim omillardan biriga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Мухаммаджонов А.Р. Бухоро шаҳри – 2500 ёшда. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 14-15.
- 2.Бухоро viloyat davlat arxivi 1023-fond, 1-ro'yxat, 149-yig'majild, 369-varaq.
- 3.Жўрабеков И. Ўзбекистонда сув хўжалиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 1982. – Б. 20.